Jabbarbergenova Bibimariyam Amangeldiyevna	
Development of Speed-Strength Abilities of Qualified Wrestlers in Sports Improvement Groups.....	1155
Jumadurdiyev Bahodir Xolmamatovich. Komilov Aziz Xoshimovich	
Odam va hayvonlar fiziologiyasi fanining oliy ta'lim tizimidagi o'rni va didaktik ahamiyati	1160
Kaljanov Damir Maxsetbayevich	
Psychological Preparation of Young Judo Players Before and During Competitions	1165
Komilov Aziz Xoshimovich, Jumadurdiyev Bahodir Xolmamatovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish	1171
Komilova Farog'at Numonjon qizi	
Tarbiya innovativ metodlarining oilada tutgan o'rni.....	1176
Marimbayeva Bibidona Rinat qizi	
Tibbiyot texnikumi o'quvchilarining mustaqil ishlari orqali kognitiv ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi	1180
Matchanova Malika Maxmudovna	
Pedagogik innovatsiyalar va yangi metodologik yondashuvlar: Design Thinking, Project-Based Learning, Problem-Based Learning onlayn shaklda	1183
Muydinjonov Ziyodjon Rafiqjon o'g'li	



Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining kasbiy tayyorgarligi va rivojlanishidagi pedagogik shart-sharoitlar	1187
N. Sh. Djumaniyazova	
Badiiy gimnastikachilarda egiluvchanlik sifatini rivojlantirishning nazariy asoslari	1190
Nazarova Mohinur Atxam qizi	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish texnologiyasi	1195
Nishonova Durdona Olimjon qizi	
Politeknikumlarda "Veb dasturlash" fanini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish metodikasi	1201
Nuritdinova Gulnigor Taxirjanovna	
O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi (uchinchi nashri) dagi o'zgarishlar	1205
Otahanova Manzura G'ofurovna	
Sog'lom turmush tarzi vositasida oliy ta'lim muassasasi talabalarining jismoniy salomatligini pedagogik strategiyalar orqali rivojlantirish metodikasi	1210
Qayumov Shohruh Abduljalol o'g'li, Norqulov Shokir Muzaffarovich, Karimova Mohinur Abduljalol qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida yozgi sog'lomlashtirish va chiniqtirish davrida ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini ta'minlash	1214
Qurbonova Asal Dilshod qizi	
O'quvchilarining kreativligini rivojlantirish bosqichlari	1218
Safarova Madina Azamat qizi	
Fizika fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish	1222
Shag'ataeva Uldanay O'serbay qizi	
Oliy ta'lim tizimida klasterli yondashuvni qo'llash orqali talabalar induktiv va deduktiv fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish	1227
Shermatova Saxobaxon Rahmonberdi qizi	
Milliy qadriyatlar asosida tasviriy san'atni o'qitishning zamonaviy yondashuvlari	1231
Sherov Dilshod Reyimberganovich	
Ta'lim jarayonida o'qituvchilarni baholashda interaktiv va moslashuvchan usullar	1236
Sayfuddinova Kavsar Rahmatulloh qizi	
Nogiron bolalarni tekshirishda psixologik-pedagogik diagnostikaning ahamiyati	1239
Umarova Sabaxon Minavvarovna, Yuldasheva Dilbarxon Turg'unovna	
Ingliz tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining muloqot qobiliyatini rivojlantirish	1242
Xalilova Muxlisa Ulug'bek qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish bosqichlari	1247
Xayitov Jonibek Xolboboyevich	
Pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonini individuallashtirishning pedagogik tizimini takomillashtirish	1250
Xudoyberdiyeva Janona Rustamovna	
Bo'lajak pedagoglarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari	1254
Axmedov Akmal Yusufovich, Muhammadjonova Zarnigor Shokirjon qizi	
Boshlang'ich sinflarda matematik mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi metod va vositalar	1258
Eshonqulova Shafoat Ergashevna, Eshonqulov Sherzod Ummatovich, Samandarova Shahnoza	
Muhandislik ta'limida smart-ta'lim texnologiyalari va adaptiv loyihalash kompetensiyasining nazariy-metodologik asoslari	1262
G. Sh. Tursunova	
Professional Needs of Deputy Directors at Secondary Schools	1266
Jambilov Nurillo Xabibilloevich	
Virtual reallik texnologiyalari yordamida ta'lim samaradorligini oshirish imkoniyatlari	1269
Mamadjonova Nozima Adhamovna	
AI or Corpus: Which is Better for Teaching English Vocabulary?	1272
Munajat Sultonova	
O'quvchilarni kasbga yo'nal tirishning pedagogik asoslari	1275
Raxmatullayeva Durdona Ravshanovna	
Ingliz tilida talabalarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi (sohaviy matnlarni o'qishni o'rgatish misolida)	1278
Shahobiddinova Dilnavoz Bahodir qizi	

Muhandislik grafikasi ta'limida raqamli transformatsiya: o'quv jarayonini takomillashtirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar (Cad, 3D modellash, VR) roli	1281
Tadjiyeva Feruza Muxtarovna	
Raqamli ta'lim ekotizimi: AKT asosida axborot-ta'lim muhiti va virtual laboratoriyalarni joriy etish tajribasi	1286
Toshkentov Akmal Mamirovich	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida chiroyli yozish texnologiyalarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida.....	1290
Usmonova Gulnoza Abdurashid qizi	
Теория коммуникации как методологическая основа изучения трансформации языковой нормы в эпоху цифровых медиа.....	1294
Дилшодбеков Темур Дилшодбек угли	
Значение усвоения учебных материалов в процессе формирования биологических понятий у учащихся.....	1297
У. О. Шарибаева	
Specifics of Teaching Professional Terminology to Students of Economic Specialties	1301
Хамдамов Рамзбек Мадаминжонович	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni kasbga yo'naltirish: pedagogik yondashuvlar va amaliy tajribalar.....	1306
Ahmedova Lola Abdivasi qizi	
Madaniyat tushunchasi va uni xorijiy til o'qitishda o'rganish zarurati.....	1311
Ma'murova Farangiz Ne'matovna	
Grafik organayzer tushunchasining mohiyati va uning turlari	1315
Nabijanov Yusufjon Inomiddin o'g'li	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishning ilmiy metodik asoslari.....	1319
Xidirova Gavhar Babaqul qizi	
Pedagogik nizo va stress holatlarida o'qituvchining o'zini boshqarish malakasini shakllantirish	1322
Razzakova Dilnoza Akramovna	
Kompyuter grafikasi darslarida loyihaviy yondashuvni amalga oshirishning metodik asoslari.....	1326
Nazarova Shahnoza Shokirovna	
Kichik yoshdagi o'quvchilarda universal ta'limiy faoliyatlarni shakllantirish nazariyasi.....	1330
Abdullayev A'zimjon Abduvali o'g'li	
ART pedagogikaning tarixi va kelib chiqishi	1335
M. K. Abulova	
Dasturiy-didaktik ta'minot asosida talabalarining kiberpedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	1338
Bekchonova Shoira Bazarbayevna	
Bo'lajak pedagoglarning fasilitatsion kompetentligini raqamli texnologiyalar vositasida rivojlantirish mexanizmi	1342
Eshmatova Go'zaloy Ziyoyidin qizi	
Mashqalali o'qitiladigan qaraqalpaq adabiyati saba'ida qollanilgan abzalliklari	1346
Jaksimova Urziya Jumabaevna	
Forming Primary-School Teachers' Creative Pedagogical Culture Through Professional Reflection.....	1349
Komiljonova Dilyoraxon	
Professional ta'limda o'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy-metodik asoslari (fizika ta'limi misolida).....	1352
Kosimova Yanglish Baxtiyorovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda ertak terapiyasidan foydalanish	1355
Mamataliyeva Mahbuba Abduvoris qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida imkoniyati cheklangan talabalarni ijtimoiy moslashtirish tizimini takomillashtirishning nazariy-pedagogik asoslari	1358
Nazarova Zarrina Allaberdiyevna	
Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari asosida pedagogik loyihalashtirish	1361
Polvonova Yulduzxon Saparboyevna	
SMART texnologiyalar asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy mahoratini shakllantirish modeli	1364
Qipchaqova Yorqinoy Hamidjonovna	
Talabalarda emotsional intellektni boshqarishning ijtimoiy-psixologik usullari.....	1368
Rustamova Barno Abduxalilovna	



Nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalariga chet tili o'qitish jarayonida pragmatik kompetensiyani rivojlantirish xususiyatlari.....	1371
Sadirova Dinara Sadikovna	
The Effectiveness of Project-Based Collaborative Learning in Improving English Speaking Skills of High School Students.....	1378
Salikhova N. I., Izzetullah Zeki	
Jadidlarning pedagogik merosi va zamonaviy ta'limda akmeologik yondashuv integratsiyasi.....	1383
Shodiyeva Nasiba Rustamovna	
Serebral falajli bolalar uchun xavfsiz muhit yaratish.....	1387
Shokirova Shaxnoza Dilmurodovna	
Diplomatik hujjatlar bilan ishlashning pedagogik modeli	1391
Sobirova Shahlo Jamolovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kreativ fikrlashga o'rgatishning zamonaviy usullari.....	1394
Suyarov Adham Begmuradovich	
Globalization and The Changing Role of English Teachers in Non-Native Contexts	1399
Toirova Shohida Kamolovna	
The Role of the Literary Heritage of the Timurid Era in Shaping National Identity and Spiritual Values	1402
Tokhliyeva Shafolat Rustam kizi	
Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning mavjud ilmiy-nazariy tavsiflari	1405
Toshboyeva Saida	
Talabalarining mustaqil ish loyihasini ishlash jarayonidagi ruhiy holatlari	1408
Uzaqbaeva Venera Abatbaevna, Kubeysinova Nilufar Maxmutovna	
O'qituvchilarda mantiqiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishning mazmuni va mexanizmlari	1412
Xursanova Zilola Mirzaxolmatovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni shakllantirish: metod va yondashuvlar	1416
Ziyayev Adxamjon	
Developing Students' Speech Skills Based on Multimodal Approach in English Teaching	1419
Bultakova Mokhinur Shuhratboy qizi	
Kreativ yondashuv asosida talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning samarali yo'llari	1422
G. M. Adizova	
A Comparative Study of Linguistic and Cultural Expression in Uzbek and English Literary Discourse.....	1426
Ismoilova Shakhnoza Ilkhomovna	
Fitrat asarlarida vatanparvarlik va milliy ong masalalarining talqini.....	1429
Isomiddinov Yo'ldosh Yusubboyevich	
Bo'lajak tarbiyachilarni pedagogik mahoratni egallash jarayonini takomillashtirish.....	1433
Jabborova Marifat Qodiraliyevna	
Umumta'lim maktablarida ijtimoiy sheriklik asosida ta'lim samaradorligini oshirish mexanizmlari	1436
Kumush Xamrakulova	
Ekologik bilimlar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiatga qadriyatli munosabatlarni shakllantirishning tarixiy asoslarini o'rganishda xorijiy tajribalar.....	1440
Mirxamidova Maftunaxon Xusanboy qizi	
O'yin nomlarining lingvomadaniy ahamiyati	1444
Matmusayeva Muhayyo Azamovna	
Umumta'lim maktablarida elektroliz jarayonini o'qitish metodikasi.....	1446
O'rinova Ozodaxon O'ljayevna, Toshtemirov Asadbek	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tizimi pedagoglarining ekoestetik madaniyatini rivojlantirishda ekologik ta'lim-tarbiyaning o'rni	1450
Oygul Ashurova Anvarjonovna	
Inklyuziv ta'limda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar majburiyat yuklatilgan shaxslar emas.....	1453
Mo'minov Sulton Akbar o'g'li, Toshmurodova Muxabbat Nazaraliyevna	
Nogironligi bo'lgan o'smir bolalarni ota-onalari bilan hamkorlikda ijtimoiy hayotga moslashtirish samaradorligini oshirish.....	1460
Salixova Gulnoza Maxmudovna	
Talabalarining o'quv faoliyatini o'yinli texnologiyalar asosida tashkil etishning nazariy asoslari	1463
Umarov Nurbek Irkinovich	
Maxsus maktablarda eshitishda nuqsoni bor bolalar nutqini interfaol metodlar orqali rivojlantirish	1466
Teshaboyeva Feruza Raximovna	



INKLYUZIV TA'LIMDA ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJLARI BO'LGAN BOLALAR MAJBURIYAT YUKLATILGAN SHAXSLAR EMAS

Mo'minov Sulton Akbar o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Ta'limni rivojlantirish respublika
ilmiy-metodik markazi Ixtisoslashtirilgan pedagogika va
inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'limi bosh mutaxassisi

Toshmurodova Muxabbat Nazaraliyevna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Xorijiy tillar ta'limi kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning huquqiy shaxs sifatida tan olinishi, ularning jamiyatda to'laqonli hayot kechirishi va ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish masalalari keng yoritilgan. Mualliflar ta'lim jarayonida bu toifadagi bolalarni faqatgina yordamga muhtoj shaxslar sifatida emas, balki o'z huquqlari, imkoniyatlari va shaxsiy rivojlanish ehtiyojlariga ega bo'lgan to'laqonli ishtirokchilar sifatida ko'rish lozimligini ta'kidlaydilar. Shuningdek, maqolada inkluziv yondashuv, individual o'quv yo'llari hamda har bir davlat zimmasidagi mas'uliyat masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar, inkluziv ta'lim, bola huquqlari, individual yondashuv, ta'limda tenglik, maxsus pedagogika, jamiyatda integratsiya, individual ta'lim rejasi.

Abstract: This article thoroughly examines the recognition of children with special educational needs as full legal persons and emphasizes the importance of creating the necessary conditions for their meaningful participation in social life and community processes. The authors stress that in the educational process, such children should not be regarded merely as individuals in need of assistance but as full participants with their own rights, capabilities, and developmental needs. The article also discusses inclusive approaches, individualized learning paths, and the responsibilities of each state in ensuring inclusive education for all.

Key words: children with special educational needs, inclusive education, children's rights, individualized approach, educational equity, special pedagogy, social integration, individualized education plan.

Аннотация: В данной статье всесторонне освещаются вопросы признания детей с особыми образовательными потребностями в качестве полноправных юридических лиц, а также создания необходимых условий для их полноценного участия в жизни общества и социальных процессах. Авторы подчёркивают, что в образовательном процессе таких детей следует рассматривать не только как нуждающихся в помощи, но и как полноправных участников, обладающих своими правами, возможностями и потребностями в личностном развитии. Кроме того, в статье рассматриваются инклюзивный подход, индивидуальные образовательные траектории и ответственность каждого государства в данном направлении.

Ключевые слова: дети с особыми образовательными потребностями, инклюзивное образование, права ребёнка, индивидуальный подход, равенство в образовании, специальная педагогика, интеграция в общество, индивидуальный образовательный план.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimini insonparvarlik va adolat tamoyillari asosida rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar jahon hamjamiyatining, xususan, O'zbekistonning ham e'tibor markazida turibdi. Har bir bola, uning jismoniy, aqliy yoki hissiy holatidan qat'i nazar, to'laqonli rivojlanish, ta'lim olish va jamiyat hayotida faol ishtirok etish huquqiga egadir. Ushbu huquq BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi, Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya va boshqa xalqaro hujjatlar bilan kafolatlangan. Mamlakatimizda ham alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlash, ularning huquqlarini himoya qilish hamda ularni ijtimoiy hayotga samarali integratsiya qilish yo'lida

muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat siyosatida “Inklyuziv ta’lim” tamoyilining ustuvor yo’nalish sifatida belgilanayotgani bu boradagi muhim yutuqlardan biridir.

Mazkur maqolada alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarning asosiy huquqlari, ularning ta’lim olishdagi imkoniyatlari, xalqaro va milliy normativ-huquqiy asoslar, shuningdek, ularni ta’lim jarayoniga samarali jalb etish mexanizmlari tahlil qilinadi.

- **Maqolaning asosiy maqsadi** – alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarni to’laqonli huquqiy subyekt sifatida e’tirof etish va ularning ta’lim olish huquqini ta’minlashda mavjud muammolar hamda yechimlarni ko’rsatib berishdan iboratdir.
- **Tadqiqot obyekti:** alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarning inklyuziv ta’limdagi huquqiy maqomi.
- **Predmeti:** ta’lim jarayonida ularning huquq va imkoniyatlarini ta’minlash mexanizmlari.
- **Maqsad:** huquqiy asoslar va ta’lim tizimining moslashuvchanligini o’rganish.
- **Vazifalar:** huquqiy hujjatlar tahlili, amaliy tajriba o’rganish, takliflar ishlab chiqish.

Mazkur maqolada alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarning huquqiy maqomi, ta’lim olishi va jamiyatda integratsiyalashuvi bilan bog’liq masalalarni o’rganishda kompleks metodologik yondashuv qo’llanildi. Tadqiqot quyidagi asosiy usullar asosida amalga oshirildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarning huquqiy maqomi, ularning ta’lim jarayonidagi ishtiroki va jamiyatda integratsiyalashuvi masalalarini o’rganishda kompleks metodologik yondashuv qo’llanildi. Tadqiqot O’zbekiston Respublikasi qonunchiligi, xalqaro konvensiyalar (BMTning Bola huquqlari to’g’risidagi konvensiyasi, Nogironlar huquqlari to’g’risidagi konvensiya) hamda O’zbekistonda qabul qilingan qarorlar (PF-5712, PQ-4860, VMQ-638 va boshqalar) asosida chuqur tahlil qilinib, mavjud huquqiy baza va davlat siyosatining asosiy yo’nalishlari baholandi. Shu bilan birga, 2021-2025-yillar oralig’ida respublika bo’yicha inklyuziv ta’lim sinflari hamda alohida ehtiyojli o’quvchilarning soni haqidagi rasmiy statistik ma’lumotlar asosida inklyuziv ta’limning amaliy joriy etilish darajasi va tendensiyalari o’rganildi. Alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo’lgan bolalarning pedagogik, psixologik va ijtimoiy xususiyatlari, ularning ta’lim jarayonidagi ishtiroki, inklyuziv ta’limning ta’siri va ahamiyati tavsifiy yondashuv asosida tahlil qilindi. Ta’lim sohasida inklyuziv yondashuvni amalga oshirish uchun ishlab chiqilgan me’yoriy hujjatlar negizida davlat siyosatining yo’nalishlari va mexanizmlari o’rganildi. Shu bilan birga, O’zbekiston tajribasi ilg’or xalqaro tajribalar bilan taqqoslanib, milliy modelning afzallik va imkoniyatlari aniqlashtirildi. Tadqiqotda maxsus pedagogika, inklyuziv ta’lim, huquqiy psixologiya, sotsiologiya va bolalar huquqlari sohalariga oid ilg’or nazariy qarashlarga tayangan holda ilmiy-nazariy asoslar shakllantirildi. Ushbu metodologik yondashuvlar tadqiqotning ilmiy ishonchligini, amaliy ahamiyatini va yangilik darajasini ta’minlashga xizmat qildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunda inklyuziv ta’lim tushunchasi butun dunyoda dolzarb mavzulardan biriga aylangan. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalar jamiyatning to’laqonli a’zosi sifatida o’z huquqlariga ega bo’lib, ularga nisbatan har qanday cheklov yoki kamsitish qabul qilinmaydi. Biroq ba’zan ushbu bolalar faqatgina qo’shimcha yordamga muhtoj shaxslar sifatida ko’rilib, ularga faqat majburiyat yuklatilgan degan noto’g’ri tushunchalar mavjud. Aslida, bu bolalar ta’lim jarayonining to’laqonli subyektlari bo’lib, o’zlarining fundamental huquqlariga ega. BMTning Bola huquqlari to’g’risidagi konvensiyasi hamda Nogironlar huquqlari to’g’risidagi konvensiyada barcha bolalar, jumladan, alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalar ham sifatli ta’lim olish huquqiga egaligi belgilangan. Ushbu huquq quyidagilarni o’z ichiga oladi:

- ta’lim olishda teng imkoniyatlar;
- differensial yondashuv asosida individual ehtiyojlarni inobatga olish;
- diskriminatsiyasiz va inklyuziv muhitda ta’lim olish;
- o’zining fikrini bildirish va jamiyat hayotida ishtirok etish;
- alohida ehtiyoj – bu kamchilik emas, balki o’ziga xoslikdir.

Inklyuziv ta’limning maqsadi: alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan o’quvchilar uchun maktabda maxsus vosita hamda metodlarni qo’llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to’siqsiz, moslashtirilgan ta’lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvini ta’minlash, bola jamiyatga to’laqonli uyg’unlashuviga xizmat qilishdir.



O'quvchi qanday imkoniyatga ega bo'lishidan qat'i nazar, ko'p hollarda kattalar yordamiga muhtoj bo'ladi. Uni alohidalash yoki alohida nom bilan "anomaliyali bolalar", "ko'rishida muammosi bo'lgan bolalar", "eshitishida muammosi bo'lgan bolalar" va hokazo tushunchalar bilan ajratib ko'rsatish insonparvarlik nuqtai nazariga to'g'ri kelmaydi. Ushbu tushunchalar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar va o'smirlarning huquqlarini kamsitish bilan bir qatorda ota-onalarga ham salbiy ta'sir etadi. Ushbu jarayonda inklyuziv ta'limning vazifalari quyidagilardan iborat:

- rivojlanishning turli imkoniyatlariga ega bo'lgan o'quvchilar uchun har qanday kamsitilishni istisno qiladigan, barcha bolalarga teng munosabatda bo'lishni ta'minlaydigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yaratish;
- jamoatchilik hamda ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar muammolariga nisbatan bag'rikenglik munosabatini shakllantirish;
- ta'lim jarayonida sog'lom bolalar bilan bir qatorda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning aqliy va ijtimoiy salohiyatlarini rivojlantirish;
- barcha o'quvchilar uchun davlat ta'lim standartlariga muvofiq umumiy o'rta ta'lim dasturlarini o'zlashtirish uchun imkoniyat yaratish;
- o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishi, emotsional-irodaviy sohasi, bilish faoliyatini faollashtirish, ijtimoiy ko'nikma va salohiyatini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga maslahat yordami berish hamda ota-onalarni farzandlariga ta'lim-tarbiya berish, pedagogik texnologiyalar, ta'lim-tarbiya metod va vositalarini qo'llash sohasida xabardorlik darajasini oshirish, ularni psixologik-pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlash.

Inklyuziv ta'lim – alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda umumta'lim muassasalarida barcha uchun teng imkoniyatlarni ta'minlagan holda beriladigan ta'lim tizimidir. O'zbekistonda yangi tahrirda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunga ham inklyuziv ta'lim haqida modda kiritildi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 50-moddasida "Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi" jumlasining kiritilishi diqqatga sazovordir¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son² qarori hamda ushbu qarorni ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son³ qarori qabul qilingan. Qarorga asosan:

- inklyuziv ta'lim umumta'lim maktablarida sinf sifatida tashkil etiladi, sog'lom o'quvchilar bilan bir qatorda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar birga bir sinfda ta'lim-tarbiya oladi va "Inklyuziv ta'lim sinfi" deb ataladi;
- umumta'lim maktabida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bir xil nuqsonli 8–12 nafar o'quvchi alohida bir sinfda ta'lim-tarbiya oladi va ushbu sinf "Boshlang'ich tayanch korreksion sinfi" deyiladi;
- umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch korreksion sinflar hududdagi aholi ehtiyoji va ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar taklifi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari, Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi bosh boshqarmasi buyrug'iga ko'ra tashkil etiladi;
- nodavlat ta'lim tashkilotlariga ham barcha zarur sharoitlar mavjud bo'lgan taqdirda inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarni tashkil etishlari mumkin, faqat nodavlat ta'lim tashkilotlarida bunday sinflarni tashkil etish tegishlicha hududiy maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi;
- maktabning inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarning birinchi sinfiga o'quvchilar ular yetti yoshga to'ladigan yilda qabul qilinadi;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim olish huquqini ta'minlash maqsadida umumta'lim maktablari uchun belgilangan yosh me'yorida 2 yilga oshgan bolalarni qabul qilishga ruxsat etilishi belgilangan;

1 <https://lex.uz/docs/-6445145>

2 <https://lex.uz/docs/-4312785>

3 <https://lex.uz/docs/-5679836>



- o'quvchilarni inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilish hamda chiqarish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligining hududiy boshqarmalari huzurida tashkil etilgan Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasiga ko'ra, ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar roziligi bilan amalga oshiriladi;
- Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya yo'llanmasi o'quvchilarni inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilinishiga asos hisoblanadi;
- qabul qilish o'quv yili boshlanguncha hamda o'quv yili davomida amalga oshiriladi va maktab direktorining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi;
- inklyuziv ta'lim sinflarida jami o'quvchilar soni 30 nafardan oshmasligi kerak, ushbu sinflarda umumiy o'rta ta'lim dasturlari bo'yicha ommaviy tarzda o'qiyotgan o'quvchilar bilan birga maxsus (korreksion) dasturlar asosida o'qiyotgan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar soni 3 nafardan oshmasligi lozim;
- inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga faqat bir xil tibbiy tashxisdagi o'quvchilar qabul qilinadi, bunday sinflar soni bir parallelda 2 tadan ortiq tashkil etilmaydi;
- o'qitish va tarbiyalash jarayoni o'quvchilarning alohida xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi, bilimlar ulardagi nuqsonlarning o'ziga xosligini hisobga olgan holda davlat ta'lim standartlariga muvofiq baholanadi;
- ta'lim-tarbiya jarayoni davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quv rejasi va dasturi asosida, maxsus korreksion tuzatish usullaridan foydalanilgan holda olib boriladi;
- individual ta'lim dasturlarini o'zlashtirishga yordam ko'rsatish maxsus pedagoglar va tyutorlar (yordamchi pedagog xodimlar) tomonidan amalga oshiriladi.

Inklyuziv ta'lim sog'lom bolalar hayotiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

- ular o'zlariga o'xshamagan tengdoshlari va ularning hayoti, ehtiyojlarini his qiladilar;
- tengdoshlariga g'amxo'rlik hissi uyg'onadi;
- ularni qo'llab-quvvatlash, yordam berishga intilish – insonparvarlik hissi tarbiyalanadi;
- o'quvchilarda atrofdagi insonlarga, imkoniyati cheklanganlarga ijobiy munosabat, o'zaro hurmat tarbiyalanadi;
- yordamga muhtoj insonlarga e'tiborsizlik qilmaydigan shaxsga aylanadilar.

Xo'sh, savol tug'iladi: inklyuziv ta'lim alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarga nima beradi?

- o'z imkoniyatini o'zi uchun kashf etish imkonini beradi;
- mustaqil harakatlanish, birgalikda va hamkorlikda ishlash imkoniyati orqali ro'yobga chiqadi;
- dunyoqarashi kengayadi, hayotiy tajribasi oshadi;
- o'qishga bo'lgan ehtiyoj va qiziqishlar ortadi;
- o'zini barchaga teng his qila boshlaydi;
- ilgari sezilmagan imkoniyatlari ochiladi;
- yotsirash va yakkalanish kabi xususiyatlar yo'qoladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni umumta'lim tizimiga jalb qilish bo'yicha salmoqli yutuqlarga erishilmoqda. Bu boradagi statistik ma'lumotlar ham sohada bosqichma-bosqich yondashuv va davlat siyosatining ijobiy natijalarini ko'rsatmoqda. 2021-2022-o'quv yilida respublika bo'yicha jami 31 ta umumta'lim maktabida inklyuziv ta'lim sinflari tashkil etilgan bo'lib, ushbu sinflarda 87 nafar (55 nafar o'g'il, 32 nafar qiz) alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchi 46 ta sinfda ta'lim-tarbiya oldi. Shuningdek, Nukus, Andijon, Kogon va Urganch shaharlarida 4 ta boshlang'ich tayanch korreksion sinf ochilib, ularda bir xil tashxisli 35 nafar bola (19 nafar o'g'il, 16 nafar qiz) qamrab olindi. 2022-2023-o'quv yilida bu ko'rsatkich yanada ortib, 195 ta umumta'lim maktabida inklyuziv sinflar tashkil etildi va 504 nafar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchi inklyuziv ta'lim jarayoniga jalb qilindi. 2023-2024-o'quv yili sentyabr holatiga ko'ra esa, 415 ta umumta'lim maktabida 736 nafar bola inklyuziv sinflarga qamrab olindi. Bu ko'rsatkichlar ta'limdagi inklyuziya jarayoni bosqichma-bosqich kengayib borayotganini anglatadi.



Yana ham ijobiy yangilik shuki, 2024-2025-o'quv yili uchun rejalashtirilgan holatda 947 ta umumta'lim maktabida 1 401 ta inklyuziv sinf faoliyati yo'lga qo'yildi va ushbu sinflarga 1 948 nafar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar qamrab olinganligi qayd etildi. Bugungi kunda, ya'ni 2025-2026-o'quv yilida, inklyuziv ta'lim joriy etilgan maktablar soni 1 708 taga, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar soni esa 3 710 nafarga yetdi⁴. Ushbu raqamlar O'zbekistonda inklyuziv ta'limning nafaqat huquqiy, balki amaliy jihatdan ham bosqichma-bosqich rivojlanayotganini, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni to'laqonli integratsiyalashgan ta'lim muhitiga jalb qilish yo'lida aniq qadamlar tashlanayotganini ko'rsatadi. Qolaversa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 13-maydagi 391-son⁵li qaroriga asosan:

- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalar va rivojlanishida nuqsonlari bo'lmagan bolalarning bir tashkilotda birgalikda o'qishi va tarbiyalanishiga qaratilgan inklyuziv guruhlar tashkil etilishi mumkinligi;
- maktabgacha ta'lim tashkilotidagi inklyuziv guruhlar yosh prinsipi bo'yicha to'ldirilishi; kamida 3 ta inklyuziv guruh tashkil etish;
- 3 yoshdan katta bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan inklyuziv guruhlar rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalarning toifasiga qarab to'ldirilishi hamda ko'pi bilan 25 nafar bola, shu jumladan rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan ko'pi bilan 3 nafar bolani tashkil etishi;
- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv guruhlarda bo'lish davri va korreksion ishlari muddati psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya tomonidan belgilanishi ko'rsatilgan.

Undan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2024-yil 30-sentabrdagi PF-152-sonli farmo-niga muvofiq, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2025-yil 1-yanvardan boshlab tajriba-sinov tariqa-sida har bir tuman (shahar)dagi bittadan umumiy turdagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim guruhlarini ochish to'g'risidagi tashabbusi qo'llab-quvvatlandi. Ko'pincha jamiyatda alohida ta'lim ehtiyo-jlari bo'lgan bolalar turli cheklovlarga duch kelishadi: ularning imkoniyatlari yetarlicha baholanmaydi yoki ularga haddan tashqari himoya va to'siq sifatida qaraladi. Aslida esa, har bir bola o'ziga xos bo'lib, ta'lim jarayonida individual yondashuv talab etiladi. Masalan, disleksiya yoki autizm spektridagi buzilishi bo'lgan bolalar an'anaviy uslubda o'qishga qiynalishi mumkin, ammo ular o'zlariga mos sharoit yaratilganda katta yutuqlarga erishishlari mumkin. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim muhiti moslashuvchan va individual yondashuvga asoslangan bo'lishiga alohida e'tibor qaratish zarur. Bu tamoyil inklyuziv ta'lim asoslaridan bo'lib, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishga qaratilgan. Unga ko'ra, ta'lim muhiti va vositalari bolalarning ehtiyojlariga mos ravishda o'zgartiriladi; o'quv dasturlari va uslublari har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olib moslashtiriladi; jismoniy va ijtimoiy muhit ham har kimga qulay bo'lishi uchun moslashtirilishi lozim.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning huquqlarini to'laqonli ta'minlash uchun ta'lim muassasalari va jamiyat quyidagi tamoyillarga amal qilishi kerak:

- inklyuziv ta'lim muhitini yaratish – maxsus va umumiy ta'lim tizimlari integratsiya qilinishi, pedagoglar maxsus metodikalar bilan ishlashi;
- pedagoglar va ota-onalarni o'qitish – alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlash uslublarini tush-untirish va yondashuvni shakllantirish;
- infratuzilma va didaktik materiallarni moslashtirish – o'quv resurslari barcha bolalar uchun tushunarli va qulay bo'lishi;
- jamiyatda ijobiy qarashni shakllantirish – alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni chetga chiqarmaslik, balki ularni qo'llab-quvvatlash bo'yicha targ'ibot olib borish.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun sharoitni moslashtirish inklyuziv ta'lim va rehabilitatsiya tamoyillariga asoslanadi; bu jarayon bolalarning individual ehtiyojlari va imkoniyatlarini inobatga olgan holda ularga ta'lim olish, rivojlanish va jamiyatda faol ishtirok etish imkonini yaratishni nazarda tutadi.

⁴ <https://t.me/uzedu>

⁵ <https://lex.uz/docs/-4333062>

Jismoniy muhitni moslashtirish doirasida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar umumiy o'rta, maktabgacha yoki boshqa ta'lim muassasalarida erkin harakatlana olishi va teng sharoitlarda ta'lim olishi uchun sharoitlar yaratilishi kerak:

- nogironlik aravachasi uchun rampalar – binoga kirish va ichki harakatlanishni osonlashtirish;
- tutqich va qo'llab-quvvatlovchi moslamalar – tayanch-harakatida muammosi bo'lgan bolalar uchun qo'shimcha xavfsizlik;
- maxsus jihozlangan sinflar – past partalar, yoritish va ovoz tizimini optimallashtirish;
- sensor xonalar – autizm spektridagi ehtiyojlari bo'lgan yoki sezgirligi yuqori bolalar uchun maxsus muhit yaratish.

O'quv jarayonini moslashtirishda o'qitish usullari individual ehtiyojlarga moslanishi lozim:

- differensial yondashuv – har bir bolaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda individual reja;
- vizual yordamlar – rasmlar, infografikalar va video materiallar orqali o'rganishni yengillashtirish;
- qo'shimcha vaqt va qo'llab-quvvatlash – o'zlashtirish darajasi pastroq bo'lgan bolalarda ortiqcha bosimni kamaytirish;
- maxsus texnologiyalar – nutqida yoki eshitishida muammosi bo'lgan bolalar uchun Brayl alifbosi, ovoz chiqaruvchi qurilmalar va maxsus klaviaturalar.

Psixologik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash ham zarur:

- maxsus pedagog va psixologlar yordami – motivatsiya berish va ishonchni shakllantirish;
- sinfdoshlar bilan integratsiya – inklyuziv muhitni yaratish va o'zaro tushunishni mustahkamlash;
- ijodiy va jismoniy mashg'ulotlar – qiziqishlar asosida kompleks rivojlantirishni ta'minlash.

Ota-onalar va jamiyatni jalb etish ham muhim:

- ota-onalar uchun treninglar – bolaga qanday yordam berish va rivojlantirish bo'yicha maslahatlar;
- jamiyatda ongli munosabatni shakllantirish – inklyuziya bo'yicha targ'ibot, seminar va konferensiyalar;
- mahalliy hokimiyat va tashkilotlar bilan hamkorlik – bolalar uchun qulay infratuzilma va resurslarni yaratish.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun muhitni moslashtirish ularning jamiyatga integratsiyasini ta'minlaydi: ular majburiyat yuklatilgan shaxslar emas, balki teng huquqli ta'lim oluvchilardir. Ularning huquqlarini ta'minlash orqali nafaqat kelajaklari, balki butun jamiyatning inklyuziv rivojlanishi ham qo'llab-quvvatlanadi. Har bir bola o'z imkoniyatlariga ega, ularni to'laqonli ro'yobga chiqarish uchun ta'lim tizimi moslashuvchan va inklyuziv bo'lishi zarur.

XULOSA

Alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar ta'lim tizimining passiv ishtirokchilari emas, balki to'laqonli huquqiy subyektlar sifatida e'tirof etilishi, ularning shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy integratsiya va sifatli ta'lim olish huquqlari to'liq ta'minlanishi zamonaviy inklyuziv ta'lim konsepsiyasining markaziy g'oyasini tashkil etadi. Mazkur maqolada bu boradagi xalqaro va milliy me'yoriy-huquqiy asoslar, amaliy mexanizmlar va pedagogik yondashuvlar keng ko'lamda tahlil qilinib, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan bosqichma-bosqich islohotlar jarayoni asoslangan holda yoritilgan. Inklyuziv ta'limning joriy etilishi nafaqat alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalar uchun mos sharoitlar yaratishni, balki ta'lim muhitining universalligi, ochiqligi va teng imkoniyatlar asosida qayta tashkil etilishini nazarda tutadi. Bu jarayon pedagogik yondashuvlarning yangilanishini, ta'lim resurslari va infratuzilmaning moslashtirilishini, ijtimoiy ong va madaniyatning o'zgarishini talab qiladi. Ayniqsa, ta'limda farqlarni kamsitish emas, balki boylik sifatida qabul qilish tamoyili inklyuziv yondashuvning negizini tashkil etadi.

Maqolada ilgari surilgan nazariy qarashlar, statistik ma'lumotlar va amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish borasida tizimli yondashuv shakllanmoqda. Inklyuziv sinflar sonining ortib borishi, maxsus pedagogik kadrlar tayyorlash, ota-onalar bilan hamkorlik, shuningdek, maktabgacha ta'limdan boshlab umumiy o'rta ta'lim tizimigacha bo'lgan bosqichlarda qo'llanilayotgan moslashtirilgan ta'lim modellari joriy qilinishi bu yo'nalishda muhim taraqqiyot bosqichlari sifatida e'tirof etiladi.



Xulosa qilib aytganda, alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalarning huquqlarini to'laqonli ta'minlash, ular uchun ta'limning mos va qulay shakllarini yaratish insonparvar va barqaror jamiyat qurilishining muhim tarkibiy qismidir. Inklyuziv ta'limni joriy etish orqali ta'limda tenglik, adolat va ijtimoiy birdamlik tamoyillarining real hayotga tatbiq etilishi ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori. <https://lex.uz/docs/-5044711>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 638-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/-5679836>
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 13-maydagi 391-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/-4333062>
5. Inclusion in Education: Towards Equality for Students with Disability. UNESCO, 2017.
6. Convention on the Rights of Persons with Disabilities. BMT, 2006.
7. "Inklyuziv ta'lim sharoitida maxsus pedagoglar faoliyatini modellashtirishning korreksion-metodik aspektlari" nomli maqola. Inter Education & Globe Study ilmiy-nazariy va metodik jurnali, 2025-yil, 1(1)-son, 164–177-betlar. Buxoro, 2025-yil.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.